



“Ming Bir Kecha” Hikoyatlarida Hindcha Ruhiyat

Annatatsiya:

Adabiyotshunoslik uzlusiz rivojlanishni taqozo etarkan, Sharq milliy an'analarining xalq og'zaki ijodiga ta'siri masalasini yangicha yondashuvlar asosida tadqiq etish dolzarb bo'lib qolmoqda. Shunga ko'ra, Sharq adabiy meroslari ta'sirida yaratilgan badiiyat namunalarini tarixiylik va milliylik mezonlari asosida tahlil qilish va ularga jahon adabiyoti yutuqlari nuqtai nazaridan yondashish lozimjigi muhimlik kasb etmoqda.

Maqolada «Ming bir kecha» asari hikoyatlarining tagzamini Hindiston va Eronga borib taqalishi haqida ilmiy farazlar bayon etilgan bo'lib, unda bir qator G'arb olimlarining ilmiy mulihazalari asos sifatida keltirilgan. Shuningdek, maqolada Sharq xalqlari hayotining mushtarak jihatlari, ayniqsa, hindcha mentalitet «Ming bir kecha» asari hikoyatlariga ta'siri muammolari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar:

»Ming bir kecha», pand-nasihat, hind, ertak, kanizak, obraz, badiiyat.

Information about the authors

Astanova Gulnora Aminovna,

*BuxDU, o'zbek tilshunosligi va jurnalistika, kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari doktori*

Aynur O'z O'zjan

Anqara universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Ertaklarning badiiy asar darajasiga etishi va avloddan-avlodga o'tib kelishida nomlari bizga noma'lum bo'lgan yuzlab xalq ertakchilarining xizmatlari katta bo'lgan[1;261]. Darhaqiqat, "Ming bir kecha" ertaklarning muallifi ham oddiy xalq vakillari. Ularning sa'y-harakatlari bo'limganida, bunday jahonshumul asar dunyo yuzini ko'rmagan, ming yillardan buyon dunyo xalqlari bu noyob durdonadan bebahra qolishi muqarrar edi.

Folklorshunos o'zbek olimi J.Yusupov har bir ertakchilik maktabi o'zining ijtimoiy-estetik prinsiplariga asoslanganini ta'kidlab o'tarkan, ertaklarning ijro usuli, syujet tarkibi, motivlar tuzilishining o'ziga xosligiga ko'ra ularni geografik hududiy tiplarga bo'lib o'rGANISH kerakligini uqtiradi[2;50].

Shunga ko'ra "Ming bir kecha"ning eng qadimgi va birinchi bosqichlari Shahrizoda va Shahriyor obrazlari, shuningdek sehrli-fantastik hikoyatlari cirasiga kiradigan "Boy bilan jin hikoyati" yoki "Baliqchi bilan dev", "Sindbodi bahriy hikoyatlari" singari, hayvon va parrandalarga oid hikoyatlar tipiga kiradigan "Kiyik bilan tovus", "Suv qushi bilan toshbaqa", "Bo'ri, odam o'g'li va tulki", "Sichqon bilan latcha", "Qarg'a bilan mushuk", "Qarg'a bilan tulki, burga bilan bilan sichqon va burgut bilan chumchuq", "Kirpi bilan yovvoyi kaptar", "Chumchuq bilan tovus" kabi ertaklar hamda pand-nasihatga oid hikoyatlardan bo'lmish "Shahzoda va etti vazir," "Shoh Jilliod o'g'li Virdxon qissasi" kabi ertaklar hind-eron hikoyat va rivoyatlariga borib taqaladi. Mazkur hikoyatlar vatani Hindiston ekanligiga va ular Eron orqali arablarga kirib kelganligiga shubha yo'q. Chunki, o'sha



davrda arab og‘zaki adabiyotida islomiylashtirilgan davlatlar madaniyatining xalq og‘zaki ijodini Eron va Hind asarlarini og‘zaki tarjima qilish keng o‘rin olganligini e’tirof etadi I.M.Filshtinskij [3;510].

“Ming bir kecha” uchun asosiy uslub bo‘lib xizmat qiladigan qolip tuzilishi hindlardan kirib kelganligini, hind adabiyoti yodgorligi bo‘lmish “Panchatantra” kabi asarlar ana shunday qolip ichida tuzilgan hikoyatlardan iboratligini, ulardagi har bir hikoyat tugallangan va bir-biriga bog‘lanmaganligini olim P.G.Grinsler o‘z ilmiy qarashlari bilan isbotlaydi [4;250]. Biroq arablar qo‘liga o‘tgach, bunday hikoyatlar o‘ziga xos janrlik xususiyatini yo‘qotib, qulay, ixcham, turli xil mazmun kasb etadigan hikoyatlar bilan boyidiki, bu narsa uning tuzilishini buzmadi. Darhaqiqat, Hind manbalaridagi, bir hikoyatdan ikkinchi hikoyatga o‘tish uslubi oddiy bog‘lanish asosida ro‘y beradi. Hikoyatgo‘y deydi: ”Sen unday qilmasliging kerak, bo‘lmasa sen bilan falonchida sodir bo‘lgan ish ro‘y beradi”. – “Bu qanday sodir bo‘lgan edi?” – deb so‘raydi suhbатdosh. SHundan so‘ng yangi hikoyat boshlanib ketadi. Buni biz “Kalila va Dimna”da ham kuzatishimiz mumkin.

“Ming bir kecha” ni ochib beruvchi va uni yaxlit bir butunlikda saqlab turuvchi voqealarga o‘xshash syujet, ya’ni aka-uka SHahriyor va SHohzamon bir oz muddat uydan uzoqlashganida ularning ayollari o‘z oshiqlari bilan bo‘lib ketishini ko‘rgan shoh Shahriyor har kech bir qizga uylanib, ertalab uni qatl ettirishga qaror qilish lavhasi qadimgi hind to‘plami – “Rivoyatlar ummoni” (“Katzasyarisagara”) asarida ham uchraydi. Bu asar qahramonlari – savdogar, braxman va ularning yo‘ldoshi ham o‘z ayollarining xiyonatini ko‘rib, o‘rmonga borib o‘sha erda to‘planib, tarkidunyochilik va meditatsiya bilan shug‘ullanishga qaror qilishadi.

Shahriyor va Shohzamon o‘z ayollari qilmishidan iztirobda shahardan chiqib keng dalada yakka daraxt ostiga borib dam oladi. Shunda daryordan sandiq ko‘targan jin chiqib, daraxt ostiga kelib, uxlaganida sandiqdan bir qiz chiqib, qo‘rqib turgan aka-ukalarni o‘ziga chorlaydi va ulardan bittadan uzuk oladi. U shu asnoda yiqqan qator-qator uzuklarini ko‘rsatadi. “Xuddi shu lavhani biz “Rivoyatlar ummoni” asarida ham uchratamiz [4;256]”.

Hindcha ko‘rinishlarning yana bir lavhasi bu “Ming bir kecha”dagi SHahrizodaning shoh SHahriyorga turmushga chiqishida vazirning qizini bu yo‘ldan qaytarish maqsadida so‘zlagan hikoyatida ko‘rinadi. Vazir hikoyatda hayvon tilini biladigan savdogar va uning sirini erini o‘limi evaziga bilishga intilgan xotini haqida rivoyat qilinadi. I.Filshtinskiy xuddi shu lavhani “Ramayana”da ko‘rish mumkinligini ta’kidlaydi [3;514].

“Ming bir kecha”da “Tegirmончи va uning xotini”[6;348] hikoyati bor. Unda ayolning erini yashirib qo‘ygan boyligi sirlaridan voqif bo‘lib, natijada oilani kambag‘allikka yuz tutishiga sababchi bo‘lishi voqealari bayon etiladi. Xuddi shunday lavhalarni “To‘tining hikoyatlari [5;258]” da ko‘rish mumkin.

Hind hikoyatlaridan kelib chiqqan ertaklarga yana “Ming bir kecha”dagi “Baliqchi bilan dev” ertagini misol qilish mumkin. ”Yaxshilikka hamisha yaxshilik emas, balki yomonlik ham kelishi mumkin”ligiga tayyor turishlik kerakligi uqtiriladigan bunday hikoyatni “Panchatantra” da ko‘rish mumkin. Unda Braxman tomonidan qutqarilgan yo‘lbars o‘z qutqaruvchisiga tashlanishi haqidagi rivoyat hikoyat qilinadi. Bu erda brahmanni shoqol qutqarib qoladi [4;262].

Yuqorida keltirilgan “Baliqchi bilan dev” haqidagi ertakda qator yana boshqa hikoyatlar keladi. Unda baliqchining jinga so‘zlab bergen hikoyati ichida “Yunon shoh, va hakim Ruyon hikoyati” bor. Mazkur hikoyat ichida fors shohi va uni ilon zahridan qutqargan burguti haqida hikoyat qilinadi. “Biroq mazkur lavha, ya’ni burgutning qanoti bilan ilon zahri to‘ldirilgan idishni urib yiqitishi eroniylarning “To‘ti hikoyatlari” ertagini qayta ishlangan variantida uchratish mumkin”, – deydi olim E.A.Krymskiy [3;53].

Shu taxlit hikoyat ichida hikoyat davom etib, yana baliqchi va jin obraziga qaytiladi. Jin baliqchini uni qutqarish evaziga to‘rt xil – oq, qizil, havo rang va sariq baliqlar makoniga olib borishni aytadi. Bu baliqlardan shohga in’om etsa, shoh uni taqdirlashini ham eslatib qo‘yadi.



Nemis hindshunos olimi A.Shlegel' mazkur to‘rt xil baliqni qadimgi hind manbalaridan olinganligini ta’kidlaydi. Brahmanlar, kshatralar (harbiylar), vayshlar (savdogar, hunarmand, er egalari) va shudralar (pastki tabaqa vakillari, qullar). Bu hikoyatda endi ular rang sifatida qabul qilingan. Bu erda har bir tabaqa o‘z rangiga ega, ya’ni brahmanlar – oq, kshatralar – qizil, vaysh’lar – sariq, shudralar – qora [7].

Xuddi shu ranglarni “Ming bir kecha”da ham ko‘rish mumkin.

Ikki hikoyat – “Shoh Jilliod o‘g‘li Virdxon qissasi” hamda “Shahzoda va etti vazir” kabi ibratomuz hikoyatlarning boshlang‘ich vatani Hindiston.

Mazkur hikoyatlarni bir necha qismlarga bo‘lish mumkin, chunki har bir qismdagi hindcha ruh teng taqsimlanmagan.

“Shoh Jilliod o‘g‘li Virdxon qissasi” hikoyatining birinchi qismida qahramon Hind shohi Jilliod – to‘laqonli komil podshoh. Yonidagi vaziri Shimos ham juda bilag‘on, dono, komil inson. Shimosning podshohga o‘gitlari hayotiy xarakter kasb etadi. Shimosning bu taxlit o‘gitlari qadimgi hind pand-nasihat tipidagi adabiyoti “Kalila va Dimna”, “Panchatantra”ga juda

“Ming bir kecha”dagi hikoyatlarning bir qanchasini hayvonlar haqidagi hikoyatlar qamrab oladi. Undagi hayvonlar obrazi ostiga yashiringan shaxslarning kimligi va bu hikoyatlar kimga tegishliligi ayon, biroq ularning kelib chiqishini qaysidir manbadan deb qidirmasak ham bo‘ladi. Chunki bunday pand-nasihat tarzida yozilgan hikoyatlar negizi bu “Panchatantra”dir. Shunga ko‘ra “Ming bir kecha” dagi bunday hikoyatlar yo albatta hindcha negizdan, yo bo‘lmasa hind rivoyatlari ta’sirida paydo bo‘lgan, deb qarash mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 12 jiddlik, 10-jild. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2005. – B.261.
2. Yusupov J. Xorazm ertaklarining genezisi, asosiy xususiyatlari va poetikasi: Filol. fan. dok. ...diss. avtoref. – Toshkent, 1999. – 50 b.
3. Filshtinskiy I.M. Istorya arabskoy literatury X–XVIII veka. – M.: 1991. – S. 510.
4. Grinser P.G. Drevneindiyskaya proza (obramlennaya povest). – M.: 1963. – S. 250.
5. Kryimskiy E.A. Tyisyacha i odna noch. Ovshi istorika – literaturnyy ocherk. – M.: 1905. – S .53.
6. Ming bir kecha. Arab ertaklari. / S.Mutallibov tarj. – M.: 1960. 8 jiddlik. J. 4. – B. 348.
7. <http://az.lib.ru/>
8. Uchok B. Jenshiny pravительницы в мусульманских государствах. – M.: 1982. – C. 14.
9. Veselovskiy, A. N. Istoricheskaya poetika. – L.: Khudozhestvennaya literatura, 1940. – C. 498.